
Sayyor qabul – fuqarolar muammolarini hal etishning maqbul yo‘li
Qo‘shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari, 2019-yil 28-iyun kuni
“Qiyqi mahalla fuqarolar” yig‘inida sayyor qabul o‘tkazdi.

Qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev, tuman hokimi o‘rinbosarlari hamda tashkilot rahbarlari qatnashdi.

Qabulda jami 12 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan 14 ta murojaatlar bildirilib ular:

Ichimlik suvi, elektr ta‘minotini yaxshilash, issiqxona qilish uchun kredit olish, tikuvchilikni yo‘lga qo‘yish uchun kredit olish, suyultirilgan gaz baloni olish, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun kredit olish masalalarida murojaatlar kelib tushdi.

Qabul davomida tuman hokimi I.Novikovga fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida qonuniy hal bo‘layotganligi hamda joylarda sayyor qabullar tashkillab, o‘tkazayotganligi uchun o‘z minnatdorchiliklarini bildirib o‘tdilar

Qabuldagi murojaatlar yuzasidan tuman hokimi I.Novikov o‘rinbosarlariga va tashkilot rahbarlariga tegishli chora tadbirlarni belgilab, murojaatlarni qonuniy xal qilish choralari ko‘rishliklari uchun muddatli topshiriqlarni berdi.









2019-06-28 19:16:51